

NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA LOGOPEDIK ISH

G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi

*Alfraganus Universiteti oliy ta'lim tashkiloti Pedagogika va Psixologiya fakulteti
Defektologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq kamchiliklariga ega bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida logopedik ishlarning mazmuni va ahamiyati tahlil qilinadi. Nutq nuqsonlarining ta'lim jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri, ularni bartaraf etish bo'yicha logopedik mashg'ulotlarning asosiy yo'nalishlari hamda ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriladigan mashqlar yoritilgan. Shuningdek, uy sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan artikulyatsion, nafas va lug'at boyituvchi mashqlar tizimi keltiriladi. Maqolada logoped va ota-onalar hamkorligi, logopedik ishlarning izchilligi hamda bolalarning ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: nutq kamchiligi, logopedik ish, maktabga tayyorlash, artikulyatsion mashqlar, nafas mashqlari, lug'at boyitish, ota-ona hamkorligi, nutqiy muhit, ta'lim samaradorligi.

Annotation: This article analyzes the content and importance of speech therapy work in the process of preparing children with speech defects for school. The impact of speech defects on the educational process, the main directions of speech therapy classes to eliminate them, and exercises carried out in cooperation with parents are highlighted. Also, a system of articulation, breathing, and vocabulary enrichment exercises that can be used at home is presented. The article develops practical recommendations for ensuring the cooperation of speech therapists and parents, the consistency of speech therapy work, and the adaptation of children to the socio-cultural environment.

Keywords: speech defect, speech therapy work, preparation for school, articulation exercises, breathing exercises, vocabulary enrichment, parental cooperation, speech environment, educational effectiveness.

Аннотация: В статье анализируется содержание и значение логопедической работы в процессе подготовки детей с речевыми дефектами к школе. Освещены влияние речевых дефектов на образовательный процесс, основные направления логопедических занятий по их устранению, упражнения, проводимые совместно с родителями. Также представлена система артикуляционных, дыхательных и лексико-лексических упражнений, которые можно использовать в домашних условиях. В статье разработаны практические рекомендации по обеспечению взаимодействия логопеда и родителей, последовательности логопедической работы и адаптации детей к социокультурной среде.

Ключевые слова: *речевой дефект, логопедическая работа, подготовка к школе, артикуляционные упражнения, дыхательные упражнения, лексико-лексическое обогащение, родительское сотрудничество, речевая среда, образовательная эффективность.*

Kirish. Ta'lim tizimida bolalarning maktabga tayyorgarligi masalasi muhim pedagogik va psixologik muammo hisoblanadi. Ayniqsa, nutq kamchiliklariga ega bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlash alohida yondashuvni talab etadi. Nutq rivojlanishidagi nuqsonlar bolalarning tafakkuri, muloqot madaniyati, o'qish va yozishni o'zlashtirish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim davrida logopedik ishlarni samarali tashkil etish kelgusida ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

Nutq insonning ijtimoiylashuvi, bilish jarayonlari va ta'limiy faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Maktab yoshiga kelgan bola uchun nutq faqatgina muloqot vositasi emas, balki tafakkurni shakllantiruvchi, bilimlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish imkonini beruvchi asosiy mexanizmdir. Shu sababli, nutq kamchiliklari bo'lgan bolalarda ta'lim jarayonida turli qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Birinchidan, tovush talaffuzidagi nuqsonlar o'qish va yozishni o'zlashtirishda sezilarli darajada muammolar tug'diradi. Bola tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilganida ularni grafik belgilari bilan bog'lashda chalkashliklar paydo bo'ladi, bu esa savod o'rgatish jarayonini qiyinlashtiradi. Masalan, bola "sh" tovushini talaffuz qila olmaydi va uni "s" bilan almashtiradi. O'qituvchi "shar" so'zini aytishni so'raganda bola "sar" deb aytadi. Keyinchalik bu xatolik yozuvda ham aks etadi, ya'ni bola "shar" o'rniga "sar" yozadi. Natijada u tovush-harf munosabatini o'zlashtirishda qiynaladi va savod chiqarishda ortda qoladi.

Ikkinchidan, lug'at boyligining cheklanganligi bilimlarni idrok etishda qiyinchilik tug'diradi. Lug'ati kam bo'lgan bola matn mazmunini tushunishda qiynaladi, fikrini izchil va to'liq bayon eta olmaydi. Bu holat matematik topshiriqlarni bajarishda ham seziladi, chunki masala shartini tushunish, uni tahlil qilishda so'z boyligi va nutqiy tafakkur hal qiluvchi omil hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bola "idish-tovoqlar" haqida suhbatda faqat "kosa" va "tarelka"ni aytishi mumkin, ammo "qozon", "choynak", "lagan" kabi so'zlarni bilmaydi. Bu esa matnni tushunishda muammoga olib keladi. Masalan, ertakdagi qahramon "choynakda choy damladi" degan gapni bola to'liq anglamaydi, chunki "choynak" so'zining ma'nosini bilmaydi.

Uchinchidan, grammatik tuzilmalardan foydalanishdagi muammolar o'quvchilar nutqining mantiqiyligi va izchilligini buzadi. Bola so'zlarni to'g'ri bog'lay olmagan sababli gaplari qisqa, parchalanib ketgan yoki tushunarsiz shaklda bo'ladi. Bu esa uning og'zaki javoblari, yozma ishlari va fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola gap tuzishda qiyinchilikka duch keladi: "Men bog' bordim" o'rniga

“Men bor bog” deb aytadi. Bu kabi grammatik xatolar uning fikrini izchil ifodalashga to'sqinlik qiladi. Natijada o'qituvchi savollariga javoblari tushunarsiz bo'lib qoladi va sinfdagi faoliyati cheklanadi.

To'rtinchidan, nutqning umumiy rivojlanmaganligi bolaning ijtimoiy moslashuvini sekinlashtiradi. Bunday bolalar tengdoshlar bilan muloqotda qiynaladi, o'z fikrini aniq ifoda etolmaganligi sababli sinfda faol qatnasha olmaydi, bu esa o'z navbatida o'ziga ishonchsizlik, tortinchoqlik va ijtimoiy cheklanish holatlarini yuzaga keltiradi. Ba'zi bolalar voqeani ketma-ketlikda aytib bera olmaydi. Masalan, “men ertalab uyg'ondim, nonushta qildim, keyin bog'chaga bordim” o'rniga u “uyg'on nonushta bordim bog'cha” tarzida so'zlarni tartibsiz sanab o'tadi. Bu uning tafakkur jarayonida ham izchillik yo'qligini ko'rsatadi. Keyinchalik bu holat insho yozishda, matnni qayta hikoya qilishda sezilarli muammolarga olib keladi.

Shuningdek, nutqdagi kamchiliklar tafakkur va xotira jarayonlariga ham bilvosita ta'sir qiladi. Bola tushunchalarni umumlashtira olmasa, predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashda qiynaladi. Bu esa o'quv fanlarini o'zlashtirishda, ayniqsa, o'qish, yozuv, matematika va atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallashda sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bola tengdoshlari bilan o'yin jarayonida ham qiynaladi. Masalan, u “men ham o'ynayman” deyish o'rniga faqat “men ham” deb qisqa aytadi. Natijada boshqa bolalar uni tushunmaydi yoki o'yin jarayonidan chetlatib qo'yishlari mumkin. Bu esa bolaning ijtimoiy moslashuviga, o'ziga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutq kamchiligiga ega bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida logopedik ishlar kompleks, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Logopedik ta'sirning maqsadi – bolaning nutqiy faoliyatini normallashtirish, muloqot va ta'lim jarayonida zarur bo'lgan nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda uni ijtimoiy muhitga moslashtirishdir. Ushbu faoliyat bir nechta asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Tovush talaffuzini tuzatish va fonematik idrokni rivojlantirish.
2. Lug'at boyligini kengaytirish.
3. Grammatik tuzilmalarni shakllantirish.
4. Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish.
5. Nutqiy muloqot madaniyatini shakllantirish.
6. Yozma nutqqa tayyorgarlik.

Logopedik mashg'ulotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – tovushlarni aniq talaffuz qilishni shakllantirishdir. Nutq apparati mashqlari (artikulyatsion gimnastika), nafas mashqlari va fonematik eshitishni rivojlantiruvchi mashqlar orqali bolalar nutqdagi tovushlarni ajratish, to'g'ri talaffuz qilish va ularni yozuv bilan bog'lashni o'rganadilar. Bu jarayon keyinchalik savod o'rgatish uchun mustahkam asos yaratadi.

Tovush talaffuzini tuzatish va fonematik idrokni rivojlantirish.

Logoped bolaga artikulyatsion gimnastika mashqlarini o'rgatadi:

“Ot chopmoqda” mashqi – tilni yuqoriga-pastga tez-tez qimirlatish orqali “r” tovushini shakllantirish.

“Shamni o'chir” mashqi – bolaga chuqur nafas olib, shamni puflashni takrorlatish orqali nafasni boshqarish va talaffuzni aniq qilish.

Fonematik eshitish mashqi: logoped ikki so'z aytadi, masalan “suv – shuv”, bola esa ular orasidagi tovush farqini topishi kerak.

Nutqiy kamchiliklarga ega bolalarda so'z zaxirasi ko'pincha chegaralangan bo'ladi. Shu sababli logopedik ishlarning muhim qismi bolalarning lug'atini boyitishga qaratiladi. Bu jarayonda atrof-muhitdagi predmetlar, ularning belgilari, harakatlari va xususiyatlariga nom berish, sinonim va antonimlardan foydalanish, mavzuga oid so'zlar asosida mashqlar tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. Lug'at boyligining kengayishi bolaning fikrlash jarayonini faollashtiradi va muloqotdagi ishtirokini osonlashtiradi.

Lug'at boyligini kengaytirish.

Mashg'ulotlarda bolaga predmetli kartochkalar ko'rsatiladi: “idishlar”, “oziq-ovqat”, “mevalar” kabi mavzularga oid. Masalan:

“Nimani ko'ryapsan?” o'yini – logoped rasmni ko'rsatadi, bola uning nomini aytadi.

“Ortini to'ldir” mashqi – logoped gap boshlaydi: “Bu qiz qo'lida ... ushlab turibdi”, bola esa gapni tugatishi kerak.

Bu usul lug'atni boyitish bilan birga gap qurish malakasini ham rivojlantiradi.

Grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish bolalarning nutqiy rivojlanishida muhim bosqichdir. Logopedik ishlar jarayonida bolalar so'zlarni to'g'ri shaklda qo'llash, so'z birikmalaridan foydalanish, gaplarni ketma-ketlikda tuzish va ularni mantiqiy bog'lashga o'rgatiladi. Masalan, oddiy gaplardan murakkab gaplarga o'tish, so'z turkumlarini ajratish, son va fe'llarning qo'llanilishi ustida ishlash bolaning grammatik tafakkurini rivojlantiradi.

Grammatik tuzilmalarni shakllantirish.

Bolaga oddiy gaplarni murakkab gaplarga aylantirish topshirig'i beriladi. Masalan:

Oddiy gap: “Bolalar o'ynayapti.”

Vazifa: “Bolalar qayerda o'ynayapti?” – “Bolalar bog'da o'ynayapti.”

Keyingi bosqich: “Bolalar bog'da o'ynayapti, chunki havo yaxshi.”

Bunday mashqlar gap qurish ko'nikmalarini mustahkamlaydi va grammatik tafakkurni rivojlantiradi.

Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida muloqot ko'nikmalarini shakllantirish ham alohida e'tibor talab qiladi. Logopedik mashg'ulotlarda bolalar suhbatlarda faol qatnashish, savollarga javob berish, fikrini izchil bayon etish, ertak va hikoyalarni qayta so'zlab berishga o'rgatiladi. Rolli o'yinlar, sahnalashtirish

mashqlari, suhbat-mashqlar orqali dialogik nutq rivojlansa, turli mavzular bo'yicha hikoya tuzish, voqeani ketma-ket bayon qilish orqali monologik nutq mustahkamlanadi.

Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish.

Rolli o'yinlar: "Do'konda", "Kasalxonada", "Bog'chada" kabi sahnalashtirilgan vaziyatlarda bolalar xaridor, sotuvchi, shifokor yoki tarbiyachi rolini bajaradilar. Bu mashqlar orqali dialogik nutq mustahkamlanadi.

Hikoya tuzish mashqi: bolaga rasm ketma-ketligi beriladi (masalan, bola ertalab uyg'onadi, tish yuvadi, nonushta qiladi, bog'chaga boradi). Bola rasmlar asosida voqeani izchil hikoya qiladi.

Logopedik ishlarning yana bir yo'nalishi – bolalarda muloqot madaniyatini tarbiyalashdir. Bunda bola suhbatdoshini tinglash, navbat bilan gapirish, o'z fikrini aniq va ravon ifodalash, intonatsiya va mimika vositalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatiladi. Bu nafaqat nutqni rivojlantiradi, balki bolaning ijtimoiy moslashuvini ham osonlashtiradi.

Nutqiy muloqot madaniyatini shakllantirish.

Mashg'ulotlarda maxsus suhbat mashqlari o'tkaziladi:

"Navbat bilan gapirish" o'yini – ikki bola suhbatlashadi, lekin faqat navbati kelganda gapirish mumkin. Bu orqali bola suhbatdoshini tinglashga o'rganadi.

"Sehrli so'zlar" mashqi – logoped bolalarga vaziyat beradi: "Do'stingdan qalam so'rayapsan, qanday deysan?" Bola esa "Iltimos, qalamni berib tur" deb aytishi kerak. Shu tarzda muloqot madaniyati shakllantiriladi.

Nutq kamchiliklariga ega bolalarda yozma nutqni o'zlashtirish jarayonida ko'plab qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu sababli logopedik mashg'ulotlarda tovush-harf tahlili, bo'g'in tuzish, qisqa so'zlar va gaplarni talaffuz qilish bilan bir qatorda ularni yozishga tayyorgarlik mashqlari ham olib boriladi. Bu bosqichda ko'rgazmali materiallar, rel'efli kartochkalar, rasmlar bilan ishlash samarali natija beradi.

Yozma nutqqa tayyorgarlik.

Logoped tovush va harflarni bog'lash mashqlarini o'tkazadi:

"Tovushni top" o'yini – logoped "osh" so'zini aytadi, bola "qaysi tovush birinchi eshitildi?" deb javob beradi.

Bo'g'inlarni yig'ish – kartochkalarda "ma", "shi", "na" bo'g'inlari beriladi, bola ulardan so'z tuzadi: "mashina".

Ko'rgazmali yozuv mashqlari – bolaga relyefli harflar berilib, u qo'li bilan ularni his qiladi, talaffuz qiladi va so'ng rasm chizadi.

Logopedik ish samaradorligi ota-onalarning faol ishtirokiga ham bog'liq. Ota-onalar farzandlari bilan uy sharoitida nutqiy mashqlarni takrorlash, birgalikda kitob o'qish, suhbat qurish orqali logopedik mashg'ulotlarni mustahkamlashlari lozim. Logopedik ishlarning samaradorligi faqat mashg'ulot jarayonida emas, balki uyda ham muntazam mashqlar bajarilgandagina yuqori natija beradi. Shu bois logoped va

tarbiyachilar ota-onalarga oddiy, ammo samarali mashqlarni tavsiya etishlari muhimdir.

Uy sharoitida ota-onalar bilan bajariladigan logopedik mashqlar

Mashq	Namuna	Natija
Artikulyatsion mashqlar	“Ot chopmoqda” – tilni tez-tez yuqoriga va pastga qimirlatish. “Soat” – tilni chap va o'ng tomonlarga harakatlantirish. “Chumchuq” – tilni tez-tez lablarga tekkizish.	Bu mashqlar til mushaklarini mustahkamlab, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi.
Nafas mashqlari	Shamni o'chirish o'yini – bolaning chuqur nafas olib, asta puflashga o'rganishi. Qog'oz parchasini havoda ushlab turish – bola nafasni to'g'ri boshqarishga odatlanadi.	Bu mashqlar nutq paytida nafasni boshqarish malakasini rivojlantiradi.
Lug'atni boyituvchi mashqlar	Atrofni ayt” – ota-ona bolaga uy ichidagi buyumlarni ko'rsatadi, bola ularning nomini aytadi. “Qaysi biri ortiqcha?” – uchta rasm (masalan, olma, nok, mashina) ko'rsatiladi, bola ortiqchasini topadi.	Bu mashqlar orqali bola atrof-muhitni to'g'ri nomlashga o'rganadi.
Grammatik ko'nikmalarni shakllantirish.	“Gapni tugat” – ota-ona gapni boshlaydi: “Men kecha ...”, bola uni davom ettiradi. “So'z o'zgartir” – ota-ona “kitob” deydi, bola esa ko'plik shaklini aytadi: “kitoblar”.	Shu tarzda bola so'zlarni to'g'ri qo'llashni mashq qiladi.
Suhbat va hikoya qilish mashqlari.	Ota-ona bola bilan ertak o'qiydi, so'ng boladan uni qayta so'zlab berishni so'raydi. Rasmlar asosida hikoya tuzish: masalan, rasmda qush uyasiga don olib kelmoqda – bola voqeani izchil bayon qiladi.	Bu mashqlar monologik nutqni rivojlantiradi.
“Sehrli so'zlar” mashqi.	Uy sharoitida bola kundalik muloqotda “iltimos”, “rahmat”, “kechirasiz” kabi odobiy so'zlarni qo'llashga o'rgatiladi.	Bu bola nutqining nafaqat mazmunini, balki muloqot madaniyatini ham shakllantiradi.
O'yinlar orqali nutqni rivojlantirish.	“Kim ko'proq so'z aytadi?” – bola va ota-ona navbatma-navbat mevalar, hayvonlar yoki kiyimlar nomini sanab chiqishadi. “Tez aytishlar” – oddiy tez aytishlar yordamida talaffuzni mashq qilish. Masalan: “Olma oldim, olmani oldim.”	Bu o'yinlar nutqni qiziqarli shaklda mashq qilish imkonini beradi.

Uy sharoitida ota-onalar tomonidan muntazam bajariladigan logopedik mashqlar bolalarning nutqini tezroq va samaraliroq rivojlantirishga xizmat qiladi. Logopedik mashg'ulotlarda olingan ko'nikmalar uyda mustahkamlanib borsa, bola maktabga tayyor bo'lishi ancha osonlashadi. Eng muhimi, ota-onalar mashqlarni majburlashsiz, o'yin tarzida, quvonchli muhitda bajarishlari kerak.

Nutq kamchiliklariga ega bolalarni maktabga tayyorlashda logoped va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik juda katta ahamiyatga ega. Chunki logopedik mashg'ulotlar odatda haftasiga bir necha marta o'tkazilsa-da, bolaning asosiy tarbiyaviy muhiti uy hisoblanadi. Agar ota-onalar logoped tavsiyalarini izchil qo'llab-quvvatlasalar, mashg'ulotlarda erishilgan natijalar tezroq mustahkamlanadi va bolaning nutqiy rivojlanishi sezilarli darajada jadallashadi.

Ota-onalar logoped mashg'ulotlarida o'rgatilgan mashqlarni uy sharoitida muntazam ravishda takrorlashlari zarur. Masalan, tovush talaffuzi ustida olib borilgan mashqlar yoki nafasni boshqarishga oid topshiriqlar har kuni qisqa muddatli mashq sifatida uyda ham bajarilishi lozim.

Uyda logopedik mashqlar bolaga majburlashsiz, qiziqarli tarzda taqdim etilishi kerak. Ota-onalar mashqlarni ertak qahramonlari, o'yinchoqlar yoki musiqiy elementlar yordamida o'tkazsalar, bola faol va quvonch bilan ishtirok etadi.

Ota-onalar bola bilan tez-tez suhbat qurishlari, savollar berishlari va uning fikrini tinglashlari zarur. Har qanday kichik yutuq (masalan, tovushni to'g'ri aytish, gapni to'liq tuzish) maqtov bilan rag'batlantirilsa, bola yanada faol bo'ladi.

Uyda kitob o'qish, ertak tinglash, rasmlar asosida suhbatlashish bolaning lug'atini boyitadi va nutqini rivojlantiradi. Ota-onalar farzandlari bilan birgalikda she'r yodlash, tez aytishlarni mashq qilish, kichik hikoyalarni o'qib eshittirish orqali nutqiy muhitni kengaytirishlari kerak.

Ota-onalar bolaning kundalik hayotida "iltimos", "rahmat", "kechirasiz" kabi odobiy so'zlardan foydalanishga rag'batlantirishlari lozim. Uyda bu kabi odobiy muloqot qoidalari mustahkamlanib borar ekan, bola maktabdagi ijtimoiy muhitga ham tezroq moslashadi.

Ota-onalar logoped bilan muntazam muloqot qilib, bolaning rivojlanish dinamikasi haqida ma'lumot olib borishlari zarur. Har bir mashg'ulotdan keyin logoped bergan topshiriqlarni uyda bajarish va natijalarni kuzatib borish bolaning nutqiy rivojlanishini aniq yo'naltiradi.

Har bir bolaning nutqiy nuqsoni va rivojlanish sur'ati turlicha bo'lgani uchun ota-onalar logoped tomonidan tavsiya etilgan individual mashqlarni e'tibordan chetda qoldirmasliklari kerak. Shuningdek, bola qiyin topshiriqlarni bajarayotganda sabrli bo'lish, uni majbur qilmaslik, balki qo'llab-quvvatlash muhimdir.

Logoped va ota-onalar o'rtasidagi uzviy hamkorlik nutq kamchiliklariga ega bolalarda ijobiy natijalarga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Logoped metodik yondashuvni ta'minlasa, ota-onalar uni uy sharoitida davom ettiradilar. Shu tariqa logopedik ishlarning uzluksizligi ta'minlanib, bolaning nutqiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi samarali kechadi.

Xulosa. Nutq kamchiligiga ega bolalarni maktabga tayyorlashda logopedik ishlar ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Tovush talaffuzini to'g'rilash, lug'at boyligini kengaytirish, grammatik tuzilmani shakllantirish va muloqot

ko'nikmalarini rivojlantirish orqali bolalarda maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun zaruriy poydevor yaratiladi. Logoped, tarbiyachi va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati bu jarayonni yanada samarali qiladi. Demak, nutqdagi kamchiliklar bolaning nafaqat muloqot faoliyatiga, balki uning umumiy kognitiv rivojlanishiga, o'quv faoliyatini samarali olib borishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabgacha yoshdayoq logopedik ishlarni tizimli tashkil etish va nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishning eng muhim shartlaridan biridir. Shunday qilib, amaliy mashg'ulotlarda logopedik ishlar bolalarning nutqini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir yo'nalish nafaqat nutqiy, balki kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan ham chambarchas bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmedova, M. (2021). *Logopediya asoslari*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Karimova, Z. (2020). *Maxsus pedagogika va logopediya*. Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyoti.
3. Вйготский, Л.С. (1983). Психология развития речи. Москва: Педагогика.
4. Лурия, А.Р. (1975). Основы нейролингвистики. Москва: Наука.
5. Smirnova, E.O. (2018). *Logopedik mashqlar tizimi*. Moskva: Akademkniga.
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi (2022). *Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida logopedik ishlarni tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanma*. Toshkent.
7. Пиажет, Ж. (1999). Ребенок и реальность. Москва: Эксмо.
8. To'raqulova, D. (2019). *Maxsus ehtiyojli bolalarni ta'limga tayyorlashda logopedik ishlar*. Toshkent: TDPU nashriyoti.